

UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA MALAKAVIY ISHLAR SAMARADORLIGI

PhD., dotsent. Inamov Dilmirza Dedamirzayevich
«Namangan davlat texnika universiteti, Logistika kafedrası»

Anatatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida malakaviy ishlarning o'rni va ularning o'quvchilar hamda talabalar kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Malakaviy ishlarni samarali tashkil etish tamoyillari, pedagogik yondashuvlar hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, innovatsion metodlardan foydalanish orqali malakaviy ishlar sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, malakaviy ish, kompetensiya, pedagogik texnologiya, amaliyot, innovatsion metodlar, samaradorlik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ КВАЛИФИКАЦИОННЫХ РАБОТ В ПРОЦЕССЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

PhD., доцент. Инамов Дилмирза Дедамирзаевич
Наманганский государственный технический университет (НамГТУ)

В данной статье рассматривается роль выпускных и квалификационных работ в системе непрерывного образования, а также их значение в формировании профессиональных компетенций учащихся и студентов. Анализируются принципы эффективной организации квалификационных работ, педагогические подходы и механизмы интеграции теоретических знаний с практикой. Кроме того, приводятся рекомендации по повышению качества таких работ посредством использования инновационных методов обучения.

Ключевые слова: непрерывное образование, квалификационная работа, компетенции, педагогические технологии, практика, инновационные методы, эффективность.

THE EFFECTIVENESS OF QUALIFICATION WORKS IN THE CONTINUOUS EDUCATION PROCESS

PhD., Associate Professor Dilmirza Dedamirzayevich Inamov
Namangan Institute of Engineering and Technology, Department of Logistics

Annotation: This article analyzes the role of qualification works in the continuous education process and their importance in developing the competencies of pupils and students. It describes the principles of effectively organizing qualification works, pedagogical approaches, and mechanisms for linking theoretical knowledge with practical application. In addition, recommendations are provided for improving the quality of qualification works through the use of innovative methods.

Keywords: continuous education, qualification work, competence, pedagogical technology, practice, innovative methods, effectiveness.

1. Kirish.

Oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash muammosi nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada hal etilmaganligining asosiy sababi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida o'qitishda didaktikaning izchillik prinsipiga amal qilmaslik va o'qitishning turli bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni e'tiborga olmaslikdadir.

O'qitishda uzviylik bu didaktik prinsip bo'lib, u ta'lim mazmunini ifodalovchi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklarda o'quv materiallarining bir-biri bilan mantiqan bog'liq bo'lishini, oldin o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda keyingilarini o'zlashtirishga tayyorlashni, bo'lajak mutaxassislarda ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning talab qiluvchi prinsipidir.

Adabiyotlar tahlili

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta'limning barcha bosqichlarida shaxsning doimiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi. Xorijiy hamda yurtimiz pedagog olimlari J.Dewey, B.Bloom, N.Saidahmedov, R.Ishmuhamedov va boshqalar, uzluksiz ta'lim tizimini bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni izchil rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona jarayon sifatida ta'riflaydilar.

Malakaviy ishlarning samaradorligi masalasida tadqiqotchilar quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlaydilar:

Amaliyotga yo'naltirilganlik Adabiyotlarda malakaviy ishlar nazariy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishga yo'naltirishi zarurligi qayd etiladi (N.Azizxo'jayeva, P.P.Blonskiy). Bunda talabaning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish asosiy o'rin tutadi.

Innovatsion yondashuvlar Zamonaviy tadqiqotlar (I.Yuldoshev, R.Ishmuhamedov) ta'limda interfaol metodlar, AKT vositalari, loyiha asosida o'qitish malakaviy ishlarning sifatini oshirishini asoslaydi. Innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan ishlar talabaning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasining to'g'ri qo'llanilishi Malakaviy ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ilmiy metodlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Pedagogik tadqiqotlar (Y.Xo'jayev, L.Kulyutaeva) empirik ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish, tajriba-sinov ishlarini puxta tashkil etishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'quvchi/talabaning mustaqil ta'limi Adabiyotlarda aytilishicha, uzluksiz ta'lim sharoitida malakaviy ishlar o'quvchining yoki talabaning mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vositadir (A.Sa'diev, A.Jalolov). Mustaqillik darajasi oshgan sari ishning samaradorligi ham ortadi.

Baholash mexanizmlarining takomillashuvi Tadqiqotchilar malakaviy ishlarni baholashda kompetensiyaviy yondashuv qo'llanilishi kerakligini, an'anaviy baholash mezonlari esa to'liq natija bermasligini ta'kidlashadi.

Zamonaviy adabiyotlarda portfel, rubrika va loyiha baholash usullari samarali deb topilgan

Tadqiqot metodologiyasi

Kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarining oldingi o'quv bosqichi – umumiy o'rta ta'lim maktablari va keyingi pog'onada turgan oliy ta'lim muassasalari bilan uzluksiz aloqalari orqali ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash muhim vazifalardan biridir. Uzviylik – umumpedagogik prinsip bo'lib, ta'lim va tarbiyaning har bir pog'onasi, bosqichi, qirralari orasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlashni, har bir oldingi pog'onada, bosqichlarda o'zlashtirilgan tushuncha, tassavvurlar, ko'nikma va malakalarni kengaytirib, chuqurlashtirib borish natijasida ta'lim va tarbiyada sifatli o'zgarishlarga olib kelishni taqazo etadi. Shuning uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda ma'lum nomutanosibliklar mavjud. Ko'p qo'llanmalarda, maqolalarda uzviylik va izchillikni ta'minlash haqida deklarativ xarakterdagi shiorlar bor, ammo, uzviylikni qanday ta'minlash kerak, bunga asos nima bo'ladi, uzviylikni ta'lim mazmunining qaysi predmetlari, bloklari, bosqichlari yoki boshqa hollarda ta'minlanishi mumkinligi haqida ko'rsatmalar mavjud emas. Shundan kelib chiqqan holda uzviylikni ta'minlashning imkoniyatlarini aniqlash, asoslash uchun chuqur ilmiy izlanish va tahlil ishlarini olib borish va amalga oshirish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlashdan asosiy maqsad – bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim va tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi bog'lanishlarni muvofiqlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash hamda mutaxassislarda raqobatbardoshlik kasbiy sifatlarini shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasa oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni samaradorligining muhim ko'rsatkichi bo'lajak mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash jarayonida aniqlanadigan ko'rsatkich o'quv maqsadlariga erishish darajasi hisoblanadi. Biroq, bilimlarni nazorat qilish va baholashning odatdagi metodikasi o'qitishning pirovard natijalarini baholash masalasini xal etmaydi.

Bahoning ob'ektivligiga talabaniing hulqi, o'zini tuta bilish uslubi, pedagog va talabaniing kommunikativ sifatlari va boshqa ko'pgina omillar beixtiyor ta'sir qiladi. Bunda qo'yiladigan baho oldin javob bergan talabalarning DAK a'zolarida qoldirgan taassurotiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, BMI natijalari bilan o'rtacha ishtirok etish undan oldin qatnashgan a'lo darajadagi chiqish oldida yana ham yomon ko'rinishga ega bo'lishi va aksincha oldingi chiqish qoniqarsiz bo'lgan bo'lsa, biroz yutuqqa erishishi mumkin. Bahoning ob'ektivligiga shuningdek javob beruvchining nutqi ham ta'sir ko'rsatadi. Ilmiyga o'xshash tildan, maxsus atamalardan foydalanib u DAK a'zolarining savollariga to'g'ri javob berishdan qochib, chalg'ituvchi mulohazalardan foydalanadi va ba'zida xoxlagan natijasiga erishadi.

Natijalar va ularning tahlili

Baholarning sub'ektivligi, nazorat qilish natijalarining qayta tiklanmasligi ta'limda realistlik va ta'sirchan qarorlarni qabul qilish mumkin emasligiga olib keladi. Moskvada 1995 yilda bo'lib o'tgan "Turli o'qitish bosqichlarida va OTM ni

akkretizatsiyadan o'tkazishda talabalarning bilimlarini nazorat qilishning zamonaviy shakl va metodlari" mavzusidagi konferensiya–seminarda baholash jarayonining ob'ektivligi va haqqoniyligini oshirishning quyidagi ikki asosiy yo'nalishi tavsiya etildi:

1) o'lchash sifatini takomillashtirish (baholashga ekspertlarni jalb qilish, baholash algoritmlarini ishlab chiqish, kvalimetrik shkalalarni qo'llash va h.k.);

2) bilimlarni test yordamida nazorat qilishga o'tish.

Tahlil yo'nalishi	Holat / Jarayon	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Muammolar	Takliflar
Rejalashtirish	Malakaviy ish mavzulari ta'lim bosqichlariga mos tanlanadi	Mavzularning 80–90% ixtisoslikka mos	Ba'zan mavzular yangilikdan uzoq	Mavzularni bozor ehtiyoji asosida yangilash
Ilmiy-metodik rahbarlik	Rahbar tomonidan muntazam maslahat beriladi	Talabani ilmiy kompetensiyasi oshadi	Rahbar–talaba uchrashuvlari yetarli emas	Uchrashuv jadvalini raqamlashtirish, monitoring
Tadqiqot jarayoni	Amaliy va nazariy izlanishlar olib boriladi	Talabalar real kasbiy vaziyatlarni o'rganadi	Ma'lumot olishda qiyinchiliklar	Hamkor tashkilotlar bilan memorandumlar kuchaytirish
Ilmiy natijalar	Xulosa va takliflar ishlab chiqiladi	70–80% loyihalar amaliyotga joriy etish mumkin	Ba'zi takliflar umumiy bo'lib qoladi	Analitik fikrlashni rivojlantirish bo'yicha trening
Himoya jarayoni	Komissiya oldida taqdimot qilinadi	Talabalarning nutq va taqdimot ko'nikmalari oshadi	Stress sababli natija pasayishi mumkin	Himoya oldi sinovlarini joriy qilish
Umumiy samaradorlik	Jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi	Malakaviy ishlar ta'lim sifatini oshiradi	Jarayonning yagona standartga tushmasligi	Metodik qo'llanmalar yaratish, standartlashtirish

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda BMIning baholash jarayoniga quyidagi talablar tizimini kiritish mumkin: validlik–malaka tavsiflarida va malaka talablarida mavjud bo'lgan o'qitishning pirovard maqsadlariga erishish darajasi va kasb faoliyatining to'liq tarkibdagi masalalarini baholashga yo'naltirilganlik; ishonchlilik – baholarning haqqoniyligi, ob'ektivligi; bahoning to'liqligi – baholash predmetlarining to'liqligi: kasb faoliyatining to'liq tarkibdagi xossalari tizimini baholashga yo'naltirilganlik; kompetensiyalarni baholash vositalari bilan qamrab olish, bu vazifalarga mos keladigan barcha MT larni hisobga olish; texnologiklik–baholovchi vositalar va texnologiyalardan foydalanish, baholashni qulayligi, tizimdagi baholashning axborotlari qulayligi; tejamkorlik; bahoning zamonaviy darajasiga (madaniyatiga) mosligi–vatanimiz va chet el baholash vositalari va baholash texnologiyasi, ularning tarkibi, tuzilmasi va mazmunining eng yaxshi namunalari bilan taqqoslab baholanadi. Bular bilan bir qatorda baholashning majmuaviyligini ta'minlash talabiga ham rioya qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kadrlar tayyorlash va kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan berilgan topshiriqlar". Prezident topshirig'i. – T.: 2023. – 12 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Oliy va kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish choralari to'g'risida". Prezident topshirig'i. – T.: 2025. – 14 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari haqida". Farmon. – T.: 2025. – 22 b.
4. Коломиев Б.К. Комплексная оценка качества подготовки выпускников вузов. Методические рекомендации. // "Квалиметрия в образовании: методология, методика, практика". Материалы XII Симпозиума. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. —46с.
5. Инамов Д.Д. Квалиметрический подход как средство оценки качества подготовки будущих педагогов профессионального образования "Образование через всю жизнь" непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Материалы 12-й международной конференции. Выпуск 12. Часть III. Санкт-Петербург. 2014. с.93-95.
7. Инамов Д.Д. Квалиметрик ёндашув воситасида бўлажак мутахассисларни тайёрлашни бошқариш самарадорлигини баҳолаш. "ЎзМУ хабарлари" М.Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университетининг илмий журнали. 2016 й.